Munosabat! Yurtimiz osmonida kuzatilgan jism haqida

Kuni kecha yurtimizning Surxondaryo, Andijon va Farg’ona hududlari tungi osmonida yorqin jismning qisqa muddatli harakati kuzatildi.



Tarqalgan video-materiallardan ko’rinadiki, ushbu jismning harakat tezligi kvazichiziqli, bo’linishlarsiz va yorqinlik o’zgarishi esa portlovchan emas, fluktatsiyalanmagan, ortidan plazmali yorqin iz kuzatilmagan. Ushbu jismning harakati va yorqinligi meteor yoki bolidning atmosferaga kirishidan tubdan farq qiladi. Xulosa qilib aytganda, ushbu jismni meteor yoki bolid deb aytishga asos yo’q va u katta ehtimol bilan astronomik jism emas.

Kamoliddin Ergashev

O’zR FA Astronomiya instituti